

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING DOLZARB MASALALARI

Pulatov Umid Fayzullo o'g'li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida asosiy vositalar tavsifi va tasniflanishi tadqiq qilib o'rganilgan. Jumladan, asosiy vositalar tushunchasiga mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan hamda ulardan foydalanish mezonlari bo'yicha tasniflab berilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vosita, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar, noishlab chiqarishdagi asosiy vositalar, ijara.

Аннотация. В данном тезисе изучается описание и классификация основных средств как объекта бухгалтерского учета и элемента финансовой отчетности. В частности, разработан авторский подход к понятию базовых инструментов и сформированы выводы путем их классификации по критериям использования.

Ключевые слова: основные средства, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, основные средства производства, основные средства непроизводственного назначения, аренда.

Abstract. This thesis examines the description and classification of fixed assets as an accounting object and an element of financial reporting. In particular, the author's approach to the concept of basic instruments has been developed and conclusions have been formed by classifying them according to the criteria of use.

Key words: fixed assets, accounting, financial reporting, fixed assets for production, fixed assets for non-production purposes, rent.

Kirish. Milliy hisob tizimida asosiy vositalarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibining nazariy, tashkiliy va uslubiy jihatlari umumiy asoslarda berilgan bo'lib, bugungi kunda ularni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga uyg'unlashtirish va hisobini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari (aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar) tomonidan 2021-yil 1-yanvardan MHXS asosida buxgalteriya hisobini tashkil etishi va moliyaviy hisobotni tayyorlashi belgilangan. Bu esa, tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobi obyekti sifatida qanday aktivlarni asosiy vosita sifatida tan olish va qaysi mezonlar bo'yicha tasniflagan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish zarurati muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Albatta, buxgalteriya hisobi obyekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida normativ-huquqiy hujjatlarda hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida asosiy vosita tushunchasiga quyidagicha ta'riflar va yondashuvlar keltirilgan: 5-son "Asosiy vositalar" nomli

buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) ning 3a-bandiga muvofiq “asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir”[1]. Shuningdek, ushbu BHMSning 4-bandiga asosan, asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;
- bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasi (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar.

Asosiy vositalar hisobini yuritishda korxona rahbari hisobot yilida aktivlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini mustaqil ravishda nisbatan kamroq miqdorda belgilashga haqlidir. Albatta, asosiy vositalar qiymatining eng kam chegarasi “Hisob siyosati”da belgilab qo‘yishi kerak.

Ma‘lumki, xalqaro standartlarga muvofiq asosiy vositalar hisobiga doir asosiy qoidalar 16-son “Asosiy vositalar” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS)da belgilangan. Mazkur xalqaro standartga muvofiq “Asosiy vositalar – bu quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlardir:

- (a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatish yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish yoxud ma‘muriy maqsadlarda foydalanish uchun tutib turiladigan; va
- (b) bir davrdan ortiq muddat davomida foydalanilishi kutiladigan” [2].

Shuningdek, asosiy vositalar obyektining boshlang‘ich qiymati faqat va faqat quyidagi mezonlar bajarilganda aktiv sifatida tan olinadi:

- tashkilotga mazkur obyekt bilan bog‘liq kelgusi iqtisodiy naflar kelishi ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- obyektning boshlang‘ich qiymatini ishonchli baholash mumkin bo‘lsa.

Bundan ko‘rinadiki, 16-son BHXSda 5-son BHMSda belgilangan “bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasi (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar” degan mezon mavjud emas. Unga muvofiq tadbirkorlik subyekti rahbariyati o‘zining professional yondashuviga ko‘ra hisob siyosatida mustaqil asosiy vosita sifatida qabul qilinadigan aktivlar qiymati bo‘yicha eng kam chegarani belgilaydi.

Shuningdek, xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari N.P.Kondrakov [4], V.G.Getman [3], G.Kasyanova [5], R.D.Dusmuratov [6], A.A.Karimov [7], K.B.Urazov [8], I.N.Ismanov [9], K.X.Xotamov [10], G.M.Raximova [11], A.S.Boltayev [12] va boshqalarning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida asosiy vosita tushunchasi, tan olish va baholash, buxgalteriya hisobi va hisobida aks ettirish masalalari yoritilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, iqtisodchi olimlar K.B.Urazov va M.E.Po‘latovlar tomonidan asosiy vositalar hisobini tashkil qilish asoslari va vazifalari, asosiy vositalar ko‘payishining hisobi, asosiy vositalarni qayta baholash, asosiy vositalarning sotilishi va boshqa chiqimlarining hisobi

o'rganilgan bo'lib, ularning fikriga ko'ra "Asosiy vositalar korxonalarning moddiy texnika bazasini tashkil etuvchi mehnat qurollari va vositalarini o'z ichiga oladi" [8]. Albatta, iqtisodchi olimlar tomonidan milliy qonunchilik bazasi talablari va unda belgilangan qoidalar asosida asosiy vositalar tasniflangan holda tavsiflab berilgan.

Iqtisodchi olimlar R.D.Dusmurotov va A.S.Boltayevlar ham amaldagi 5-son BHMSda belgilangan asosiy vosita tushunchasiga berilgan ta'rif va uni tan olish mezonlarini keltirib o'tgan bo'lib, ularning fikriga ko'ra "Asosiy vositalar tarkibiga yer, binolar, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar kiradi" [12].

Iqtisodchi olimlar B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov va A.A.Abduvohidovlar tomonidan asosiy vositalar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari, asosiy vositalar hisobini tashkil qilishning vazifalari, asosiy vositalarning turkumlanishi va baholash tartibi, asosiy vositalar harakatini hisobga olish kabi masalalar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida umumiy tavsifda tadqiq qilib o'rganilgan. Jumladan, ular "Asosiy vositalar tarkibi xilma-xil bo'lib, ma'lum tasniflash mezonlari bo'yicha guruhlanadi. Namunali tasnifiga muvofiq asosiy vositalar quyidagicha turlarga bo'linadi: 1) binolar; 2) inshootlar; 3) uzatish qurilmalar; 4) mashina va uskunalar (shu jumladan, quvvatli mashinalar va uskunalar; ishchi mashinalar va uskunalar; o'lchov va tartibga soluvchi qurilmalar, qurilmalar va laboratoriya uskunolari, kompyuter texnikasi, boshqa mashinalar va uskunalar); 5) transport vositalari; 6) instrumentlar; 7) ishlab chiqarish uskunolari va aksessuarlari; 8) xo'jalik inventarlari; 9) ishchi va mahsuldor hayvonlar; 10) ko'p yillik o'simliklar; 11) erlarni obodonlashtirishga uchun kapital xarajatlar; 12) boshqa asosiy vositalar" [13]. deb ta'kidlab o'tganlar.

Iqtisodchi olim G.M.Raximova [11] tomonidan asosiy vositalarni milliy va xalqaro standartlar asosida turkumlanishi taklif etilgan bo'lib, uning fikriga ko'ra "Ishchi va mahsuldor hayvonlar" va "Ko'p yillik o'simliklar" milliy standartlarimizga muvofiq asosiy vosita sifatida, 41-son "Qishloq xo'jaligi" buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha biologik aktiv sifatida tan olinishi ko'rsatib o'tilgan.

Iqtisodchi olim K.X.Xotamov [10] ning fikricha, asosiy vositalarga berilgan ta'rif, ularning qiymati va xizmat ko'rsatish muddatiga bir oz qo'shimchalar kiritishni lozim. Lekin aksiyadorlik jamiyati, xususi va boshqa mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar asosiy vositalarning xizmat muddati va qiymati mulkdorlar tomonidan belgilanishi maqsadga muvofiq deb ta'kidlagan holda asosiy vositalarni buxgalteriyada hisobga olish muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha o'zining fikr-mulohazalarini keltirib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalar hisobini o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur qilish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar. Demak, yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarda va iqtisodchi olimlar tomonidan asosiy vositalar tushunchasi va ularning tasniflanishi mazmunan bir-biriga yaqin ta'riflar, yondashuvlar va fikr-mulohazalar keltirilgan. O'z navbatida, bizning fikrimizcha, "asosiy vositalar – bu aktiv sifatida tan olish mezonlariga javob beradigan, moliya-xo'jalik faoliyatida bir yildan ortiq foydalaniladigan, qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lgan moddiy aktivlardir".

Yuqoridagi asosiy vositalar tushunchasiga berilgan yondashuvimizni quyidagicha izohlaymiz: birinchidan, tadbirkorlik subyekti biror bir moddiy qiymatlikni asosiy vosita sifatida tan olishidan oldin, o'zi uni aktiv sifatida tan olish mumkin yoki mumkin emasligini, ya'ni aktiv sifatida tan olish uchun normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan mezonlarga javob berishini tekshiradi. Shundan so'ng, agarda aktiv mezoniga javob bersagina, uni tan oladi. Ikkinchidan, aktiv sifatida tan olingan moddiy qiymatlik muddat mezoni bo'yicha o'rganilgan holda baholanadi. Agarda u bir yildan ortiq foydali xizmat muddatiga ega bo'lsa, uni uzoq muddatli aktivlar tarkibiga asosiy vosita sifatida tan olish lozim. Shuningdek, mazkur aktivdan ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish faoliyatida foydalanish orqali undan iqtisodiy naf olish kutilayotgan bo'lishi, tadbirkorlik subyektining moliya-xo'jalik faoliyatida foydalanish uchun tutib turilishiga asos bo'ladi. Uchinchidan, mazkur moddiy qiymatlik asosiy vosita sifatida tan olinar ekan, asosiy baholash mezonlaridan biri uning qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lishi lozim. Chunki, uning qiymatini ishonchli baholay olmas ekanmiz, uni buxgalteriya hisobida hisobga olish imkoniyatimiz yo'qligini anglatadi. To'rtinchidan, 5-son BHMSda belgilangan "asosiy vositalarni tan olishda qiymati eng kam ish haqining 50 barobaridan kam bo'lmasligi kerak" degan mezonni olib tashlash kerak. Natijada, uzoq muddatga xizmat qiladigan moddiy aktivlarning tarkibini xalqaro standartlarda keltirilgan mezonlar doirasida tadbirkorlik subyektlari o'zlari belgilash huquqiga ega bo'ladi. Shuningdek, asosiy vositalardan unumli va samarali foydalanish, ular to'g'risida foydalanuvchilarga aniq axborotlar berishni ta'minlash maqsadida ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida to'g'ri aks ettirish lozim deb hisoblaymiz. Shu sababli, asosiy vositalarni ma'lum bir mezonlar bo'yicha tasniflagan holda buxgalteriya hisobida hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Albatta, yuqoridagi iqtisodchi olimlar tomonidan ham turli mezonlar bo'yicha asosiy vositalar turkumlangan holda tavsiflab berilgan. Ularning yondashuvlarini e'tirof etgan holda, bizning fikrimizcha, asosiy vositalar quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanishi, ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida to'g'ri aks ettirish va foydalanuvchilarni aniq axborotlar bilan ta'minlash imkonini beradi (rasm).

Xulosa. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida asosiy vositalar tavsifi va tasniflanishi tadqiq qilib o'rganilgan holda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

birinchidan, asosiy vositalar tushunchasiga amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan ta'riflar va iqtisodchi olimlarning yondashuvlari tadqiq qilingan holda mualliflik yondashuvi shakllantirildi hamda farqli jihatlari asoslab berildi;



ikkinchidan, asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri hisobga olish va moliyaviy hisobotda ular to‘g‘risidagi axborotlarni aniq aks ettirish maqsadida ulardan foydalanish mezonlari bo‘yicha tasniflab berildi. Bu albatta, axborotdan foydalanuvchilarni o‘rinli va haqqoniy axborotlar bilan ta‘minlash imkonini beradi;

uchinchidan, buxgalteriya hisobi ob‘ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida asosiy vositalar tavsifi va tasniflanishi bo‘yicha berilgan yondashuvlar BHMS va MHXSning amalda qo‘llanilishi bo‘yicha umumiy qoidalardagi tafovutlarni qisqartiradi, asosiy vositalarni buxgalteriyada hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo‘yicha xalqaro standart talablariga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxgalteriya hisobining milliy standarti. 5-sonli BHMS “Asosiy vositalar” <https://lex.uz/acts/821041>
2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. 16-son “Asosiy vositalar” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/docs/6312360>
3. Бухгалтерский учет: учебник / под ред. проф. В.Г.Гетмана. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: ИНФРА-М, 2022 – 447 с.
4. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет (финансовый и управленческий): учебник. – 5-е изд., перераб. и. доп. – Москва: ИНФРА-М, 2022. -87 с.
5. Касянова Г. Основные средства: бухгалтерский и налоговый учет. АБАК, 2019 й. 304 с.
6. R.D.Dusmuratov, B.Yu.Menglikulov. Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. 392 bet.
7. A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, N.M.Imamova Xalqaro

⁴ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

moliyaviy hisobot standartlari. (Darslik). – T.: “Nihol print” OK, 2021. – 332 b.

8. K.B.Urazov, M.E.Po‘latov Buxgalteriya hisobi. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, - 558 b.

9. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2009.

10. Xotamov K.X., Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish. // i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: TMI, 2019.

11. Raximova G.M. Asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU, 2021.

12. Dusmuratov R.D., Boltayev A.S. Moliyaviy tahlil. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. – 458 b.

13. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov Buxgalteriya hisobi. – T.: “Sharq” 2021. – 140 b.